



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2021- YILNING YANVAR-OKTABR OYLARIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar
ulushi –
64,2 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
5 193,8
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
10 168,0
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
66,7 %**

**Ko'rsatilgan
bozor
xizmatlarining
o'sish
sur'atlari -
120,1 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
118,5 %**

2021- yil yanvar-oktabr


Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 168,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **2 356,9** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,1** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	10 168,0	120,1
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	414,2	118,7
Moliyaviy xizmatlar	1 691,3	123,7
Transport xizmatlari	2 456,1	122,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 200,3	115,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	383,7	108,1
Savdo xizmatlari	3 225,3	112,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	233,8	122,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	492,0	135,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	190,6	137,8
Ijara xizmatlari	273,0	137,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	209,4	123,6
Shaxsiy xizmatlar	214,2	127,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	93,0	109,7
Boshqa xizmatlar	291,4	131,5

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-oktabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **31,7 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport (**24,1 %**), moliyaviy xizmatlar (**16,6 %**), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlari (**4,8 %**) bo'yicha qayd etildi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **0,9** % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **33,3** % ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,0** %.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-oktabr oylarida yuqori o'sish ijara xizmatlarda (**37,8** %), sog'liqni saqlash (**37,8** %), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**35,9** %), boshqa xizmatlarda (**31,5** %), shaxsiy xizmatlar (**27,5** %), moliyaviy xizmatlar (**23,7** %), kompyuterlarni ta'mirlash (**23,6** %), transport xizmatlarida (**22,8** %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**22,3** %), hamda, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**18,7** %) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlarda (**08,1** %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Активация
Чтобы активировать


Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ijara va sog'liqni saqlash xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **137,8 %**.
Me'morchilik sohasidagi xizmatlarida keskin pasayish kuzatilgan – **28,7 %**.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Avtomobil transporti xizmatlarining o'sish sur'ati, % da (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida avtotransport xizmatlarining yuqori o'sishiga Jondor (**17,0 %**), Buxoro (**16,9 %**), Peshku (**16,0 %**) va G'ijduvon (**15,9 %**) tumanlarida, shuningdek, Kogon shahrida (**19,6 %**) erishildi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining pasayish sur'ati Qorovulbozor tumanida kuzatildi – **2,3 %**.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,7 %** ni tashkil etib, bu **3 225,3** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **2 598,0** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **33,3 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2021-y.
yanvar-
oktabr

3 225,3
mlrd. so'm



2 598,0
mlrd. so'm

627,3
mlrd. so'mga

Hajmning
o'sishi

112,3 %



100,0 %


2020-y.
yanvar-
oktabr



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'mda
(2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)



2021- yil yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahrida qayd etilgan – **746,9** mlrd. so'm.

Shu bilan birga, shahar va tumanlar orasida G'ijduvon (**479,5** mlrd. so'm), Vobkent (**356,6** mlrd. so'm), Buxoro (**241,8** mlrd. so'm), Jondor (**221,9** mlrd. so'm), Peshku (**215,5** mlrd. so'm), Romitan (**175,8** mlrd. so'm) va Kogon (**163,9** mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **72,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **20,1 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **7,0 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo ulushi **77,1 %** ga yetdi.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

2021- yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 691,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **1 340,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **16,6** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi **17,1** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **351,3** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **23,7** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati **141,4** % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,0** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,9** % oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **3,1** % ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

Yordamchi moliyaviy
faoliyat



Sug'urta bo'yicha
xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **92,6** % ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,2** % ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar
– **2,2** %.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2020- y.
yanvar-oktabr

342,6
mlrd. so'm

103,8 %

4,4 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

71,6 mlrd. so'mga

2021- y.
yanvar-oktabr

414,2
mlrd. so'm

118,7 %

4,1 %


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi **90,9 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y.
yanvar-oktabr



2021- y.
yanvar-oktabr



 **Telekommunikatsiya xizmatlari**

 **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

 **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

 **Noshirlik xizmatlari**


Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **93,9 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar




2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **492,0** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,8 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **135,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi G'ijduvon (**28 672,5** mln. so'm), Jondor (**18 988,5** mln. so'm), Qorako'l (**13 178,3** mln. so'm), Buxoro (**11 563,9** mln. so'm), Shofirkon (**11 443,5** mln. so'm) va Romitan (**10 262,0** mln. so'm) tumanlari hamda Buxoro shahrida (**354 044,8** mln. so'm) qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm
(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida Buxoro shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **299 420,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-oktabr




190,6 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

1,9 %




Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi

137,8 %




O'sish sur'ati


2020- y.
Yanvar-oktabr



122,3 mlrd. so'm



1,6 %




83,4 %

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash sohasida xizmatlarning yuqori o'sishi Buxoro shahrida **146,6** % ni tashkil etdi. Nisbatan past o'sish sur'ati Kogon shahrida kuzatildi – **112,1** %.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

304,6 mlrd.
so'm

383,7 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

2020- y.
yanvar-oktabr

2021- y.
yanvar-oktabr

81,2 %

108,1 %

O'sish
sur'ati

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2020-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **79,1** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



**2020- y.
yanvar-
oktabr**

**2021- y.
yanvar-
oktabr**



**Yashash bo'yicha
xizmatlar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar**

2021- yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **88,9** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **92,7** % ni tashkil etgan.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-oktabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Buxoro viloyati *)	10 168,0	120,1	103,5
Olot	379,5	114,0	100,8
Buxoro	589,6	116,8	101,3
Vobkent	653,0	163,5	100,8
G'ijduvon	1 327,3	115,7	100,0
Kogon	350,4	126,5	102,4
Qorako'l	446,0	114,4	101,5
Qorovulbozor	168,9	103,9	92,1
Peshku	526,7	112,5	101,0
Romitan	542,7	114,8	100,5
Jondor	598,9	115,8	100,3
Shofirkon	440,6	113,1	100,9
shaharlar:			
Buxoro sh.	3 779,8	121,9	107,2
Kogon sh.	364,6	119,4	100,6

*) shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)



2021- yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Buxoro shahri tashkil etdi – **37,2 %** (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – **46,1 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Qorovulbozor tumanida – **1,7 %** (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – **1,5 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

5 193,8
ming so'm

Hajmning
o'sishi

1 150,4
ming so'mga



118,5 %

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 193,8** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:
2020- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **4 043,4** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,1 %** da qayd etilgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

20 152
birlik



2 670
birlikka
o'sgan

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

115,3 %



64,2 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi




2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **64,2 %**, sanoat **15,7 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **10,7 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **9,4 %** ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **63,7 %** ni, sanoat **15,5 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,0 %** ni, qurilish **9,8 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**43,6 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **12,2 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **8,7 %** ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **3,8 %** ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,7 %** ga teng bo'ldi.

Savdo – 43,6

Boshqa turdagi
xizmatlar – 30,0

Yashash va ovqatlanish
– 12,2

Tashish va saqlash – 8,7

Sog'liqni saqlash – 3,8

Axborot va aloqa – 1,7


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-oktabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **66,7** % ni tashkil etdi

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **83,3** % ga to'g'ri keldi.

1- noyabr holatiga

2020- y.

81,2 %

2021- y.

83,3 %

Xizmatlar sohasi
statistikasi bo'limi
Tel.: 65-223-79-41